

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKDEMIYASI

ASATULLAYEV ALISHER ASATULLA O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV KREDITLASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Asatullayev Alisher Asatulla o‘g‘li

О‘zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish3

Асатуллаев Алишер Асатулла угли

Улучшение практики корпоративного кредитования в Узбекистане29

Asatullaev Alisher Asatulla ugli

Improving corporate lending practices in Uzbekistan.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works62

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

ASATULLAYEV ALISHER ASATULLA O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV KREDITLASH AMALIYOTINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/Iqt4059 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://www.tiu.uz/>) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Elmirzayev Samariddin Eshkuvatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Rasmiy opponentlar: Ataniyazov Jasur Xamidovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rahmatov Hasan O'tkirovich
iqtisodiyot fanlari doktori


Yetakchi tashkilot: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi


Dissertatsiya himoyasi Toshkent xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «02» o'z kuni soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55)

Dissertatsiya bilan Toshkent xalqaro universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 39 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «16» o'z kuni tarqatildi.
(2025 yil «14» o'6 dagi 36 raqamli reestr bayonnomasi).


N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Korporativ kreditlash amaliyotini rivojlantirish global iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “So‘nggi yillarda kreditlari bozori hajmi tez o‘sdi. Mazkur bozor 2023 yildagi 14152,54 milliard dollardan 2024 yilda 16442,29 milliard dollargacha o‘sdi hamda yillik o‘sish sur‘ati 16,2 foizni qayd etdi”¹. Korxonalarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish bu jarayonning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun korxonalariga moslashuvchan va past foizli kredit resurslari zarur. Mazkur jarayonda kreditlash jarayonining shaffofligi va tezkorligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali onlayn kreditlash tizimini rivojlantirish lozim. Ta‘sirchan korporativ kreditlash amaliyoti yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy bozorni qo‘llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirish uchun zamin yaratadi. Shu sababli korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda xalqaro kredit bozoridagi keskin o‘zgarishlar sharoitida risk menejmenti, iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida bank sohasida moliyaviy texnologiyalar qo‘llanilishi samaradorligini baholash, korporativ kredit bozori ishtirokchilari faoliyatini diversifikatsiyalash maqsadida yangi bank mahsulotlarini joriy etish kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda O‘zbekiston singari iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlardagi kredit bozorlarining o‘ziga xos jihatlari, mazkur bozorlarda korporativ kreditlash amaliyotini samarali yo‘lga qo‘yish va mahalliy kredit bozorida raqobatni rivojlantirish bo‘yicha mexanizmlarni shakllantirish kabilar bilan bog‘liq muammolar yetarlicha o‘rganilmagan. Korporativ kreditlash amaliyotini samarali tashkil etishda mahalliy va xorijiy kredit bozori ishtirokchilarini faol jalb qilish, korporativ tuzilmalarning moliyaviy resursga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda raqobatni ta‘minlash, tijorat banklari resurs bazasini kengaytirishning samarali va shaffof mexanizmlaridan foydalanish masalalari o‘z yechimini topmagan. Bu, o‘z navbatida, korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan “2024 yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar 275 trillion so‘mni tashkil qiladi. 2025 yilda bu 300 trillion so‘mdan oshishi hisob-kitob qilingan. Ayniqsa, kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion so‘mga yetkaziladi”², deya qayd etilgan. Biroq mazkur sohada bir qator

¹ (The Business Research Company) Biznes Tadqiqotlar Kompaniyasining hisobot ma‘lumotlari. <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/commercial-lending-global-market-report>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Tadbirkorning yutug‘i – butun xalqimizning yutug‘i” nomli nutqi, 20.12.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>

hal qilinishi lozim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mahalliy kredit bozorida raqobatning yetarlicha ta'minlanmaganligi, kredit bozorida xorijiy ishtirokchilar ulushining pastligi, korporativ kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, tijorat banklari tomonidan korporativ tuzilmalarni moliyalashtirishda barcha soha vakillari qamrab olinmaganligi, bank sohasida davlat aralashuvining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, korporativ kredit mahsulotlarini olish bo'yicha yuqori qoidalar va talablarning mavjudligi, korporativ kreditlash amaliyotida muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi kabilarni ta'kidlash joiz. Shu sababli O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish, xususan, kredit bozorida ishtirokchilar faoliyatining tashkiliy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdagi o'ziga xos jihatlari va muammolarni har tomonlama o'rganish, korporativ kreditlashda risklarni aniqlash va baholash metodologiyasini ishlab chiqish, mazkur sohada ilg'or xorij tajribalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega hamda tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 11 noyabrdagi 582-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", 2019 yil 5 noyabrdagi 580-son "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", 2022 yil 20 apreldagi 765-son "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 13 maydagi 5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 31 oktabrdagi PQ-4503-son "Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korporativ kreditlash faoliyatining iqtisodiy asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari va mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari, sohani rivojlantirish tendensiyalarini xorijiy iqtisodchi olimlardan S. Vollmar, F. Wening, W.Fan, F.Wang, H.Zhang, B.Yan, R. Ling, H. Jiang, A.I. Dimitras, Ch.C. Mitsi, C.Zopounidis, X. Wang, J. Chen, Y. Yuan, T. Liu, Y. Yu, D. Gong, M. Guo, Y. Qian, F. Wang, M.Zhang, N. Zhong, A. Rehman, W. Mehmood, A. Alsmady, A. Sharif, D. G. Yang, Ch.J. Godlewski, B. Sanditov, V. Ivashina, L. Laeven, E. Moral-Benito, M.Love, M. Peria, K. Guo, V. Stepanyan, G. Jimenéz, S. Ongena, J. Peydró, J. Saurina, S.Carbo-Valverde, H. Degryse,

F. Rodriguez-Fernandez, M. Brown, K. Kirschenmann, S.Ongena, R. Hausmann, R. Rigobon, V. Von, M.E. Bukhari, M.S. Sillah, A. Wassu³ va boshqalar o‘zlarining tadqiqotlarida o‘rganishgan. Shuningdek, ushbu olimlar kreditlash faoliyatining iqtisodiy asoslari, kredit bozori va unda ishtirokchilar faoliyatini tartibga solish, xorijiy kredit bozori ishtirokchilari faoliyatining xususiyatlari, korporativ kreditlash amaliyotidagi muhim jihatlar, korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalarini ham tadqiq qilgan.

Mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullayeva, J. Razzaqov, F.Xolmamatov, B.B. Izbosarov, B.B.Abduraxmanov, J. Bo‘riyev, S.D.Rayimnazarov, Z.Z. Xudayberganova, I.R.Suleymanov, D.K. Abduraximova, H.H. Otamurodov, A.M. Rahimov, G.Turdiyeva, M. Mo‘minova, B.Sultonmurodov⁴ kabi iqtisodchi olimlar o‘z tadqiqotlarida banklar faoliyati, kredit

³ Steffen Vollmar, Fabian Wening. Does heat stress deteriorate the quality of banks' loan portfolios? Evidence from U.S. community banks. // Finance Research Letters. Volume 69, Part B, November 2024; Wenna Fan, Feng Wang, Hao Zhang, Bin Yan, Rui Ling, Hongfei Jiang. Is climate change fueling commercial banks' non-performing loan ratio? Empirical evidence from 31 provinces in China. // International Review of Economics & Finance. Volume 96, Part A, November 2024; Augustinos I. Dimitras, Chrysavgi C. Mitsi, Constantin Zopounidis. Does firm carbon risk matter to banks? Evidence from the US syndicated loan market. // Journal of Environmental Management. Volume 368, September 2024; Xiao Wang, Jiantao Chen, Yichen Yuan. Impact of fintech on the loan structure of urban commercial banks in China. // Finance Research Letters. Volume 65, July 2024; Tao Liu, Yanxin Yu, Di Gong, Min Guo. Geographic disparities in bank lending: Evidence from an auto loan market. // Pacific-Basin Finance Journal. Volume 88, December 2024; Yilei Qian, Feng Wang, Muyang Zhang, Ninghua Zhong. Political uncertainty, bank loans, and corporate behavior: New investigation with machine learning. // Pacific-Basin Finance Journal. Volume 87, October 2024; Abdul Rehman, Waqas Mehmood, Ahnaf Ali Alsmady, Arshian Sharif. Corruption's impact on non-performing loans of banks in emerging markets: Empirical insights. // Research in Globalization. Volume 9, December 2024; Daniel G. Yang. Foreign bank branch participation and U.S. syndicated loan contract design. // Journal of Accounting and Economics; Christophe J. Godlewski, Bulat Sanditov. Bank loan renegotiation and financial institutions' network. // International Review of Financial Analysis. Volume 95, Part B, October 2024; Victoria Ivashina, Luc Laeven, Enrique Moral-Benito. Loan types and the bank lending channel. // Working Paper Series, European Central Bank, No 2409, May 2020. – p. 5; Love M., Peria M. (2012), How Bank Competition Affects Firm's Access to Finance, Midwest Finance Association 2013, Annual Meeting Paper, Available at SSRN: <http://ssrn.com/abstract=2144888>; Guo K., Stepanyan V., Determinants of Bank Credit in Emerging Market Economies, IMF Working Paper, 2011.; Jimenéz G., Ongena S., Peydró J., Saurina J., Credit supply identifying balance-sheet channel with loan applications and grantem loans, European Central Bank Working Paper Series, No. 1179 / April, 2010.; Carbo-Valverde S., Degryse H., Rodriguez-Fernandez F., Lending Relationships and Credit Rationing: The Impact of Securitization, Australasian Finance and Banking Conference, 2011.; Brown M., Kirschenmann K., Ongena S., Foreign Currency Loans - Demand or Supply Driven? Swiss National Bank, 2010.; Hausmann, R. & Rigobon, R. (2002). An alternative interpretation of resource curse: Theory and implications. National Bureau of Economic Research, 1050 Massachusetts Avenue, Cambridge, MA 02138.; Von, V.; Bukhari, M.E., Sillah, M.S., and Wassu, A. Banking and economic growth: Case of Gambia. Inaugural Dissertation Kyiv Institute, 2005.; Yangmei Wang, Savannah (Yuanyuan) Guo. How does the CEO horizon problem affect the cost of bank loans? // Advances in Accounting Available online 10 July 2024.; Christophe J. Godlewski, Bulat Sanditov. Bank loan renegotiation and financial institutions' network. // International Review of Financial Analysis Volume 95, Part B, October 2024.

⁴ Abdullayeva Sh. Bank ishi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2017. – B. 245. (732 b.); Razzaqov J. Biznes loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2024. – 75 b.; F.Xolmamatov. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2019. – 11 b.; B.B. Izbosarov. Globallashuv sharoitida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 17 b. ; B.B. Abduraxmanov. Kichik biznes sub'ektlarini kreditlash amaliyotini innovatsiyalar asosida takomillashtirish yo‘llari. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 19 b.; J.P. Bo‘riyev. Tijorat banklarining fond bozoridagi faolligini oshirish. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 10 b.; S.D. Rayimnazarov. Tijorat banklarining chakana xizmatlarini rivojlantirish yo‘llari. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 15 b.; Z.Z.Xudayberganova. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari. // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 11

bozorida banklarning faoliyati, kredit bozorida korporativ kreditlarning xos jihatlari, korporativ kreditlashning tashkiliy va amaliy mexanizmlarini yoritishgan.

Yuqoridagi olimlar o'z tadqiqotlarida kredit bozori va kreditlash amaliyotining ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan bo'lsalarda, ilmiy ishlarida aynan korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalari to'liq qamrab olinmagan. Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo'ladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tijorat banklari kredit operatsiyalari mazmuni va ahamiyatli jihatlari o'rganish;

korporativ mijozlarni kreditlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

xorijiy banklarning korporativ kreditlash amaliyoti tadqiqini amalga oshirish;

O'zbekistonda biznesni bank kreditlari vositasida moliyalashtirish amaliyotini tahlil qilish;

korporativ mijozlarga beriladigan kredit mahsulotlari tahlilini amalga oshirish;

kredit liniyalari orqali korporativ kreditlashning amaldagi holatini tahlil qilish;

O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llarini o'rganish;

tijorat banklarining korporativ kreditlash amaliyotini samarali tashkil etish yo'llariga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishda vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida qiyoslash, kuzatish, deduksiya, induksiya, analiz, sintez, statistik tahlil, tanlanma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

b.; I.R.Suleymanov. Iqtisodiyotning bank va real sektorlari integratsiyasini kuchaytirish yo'llari. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 5 b.; D.K.Abduraximova. O'zbekiston uchun yangi hisoblangan bank mahsulotlarini joriy qilish. // Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati, 2021. – 10 b.; H.H. Otamurodov. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2019. – 5 b.; A.M. Rahimov. Tijorat banklari depozit bazasi va uni kengaytirish yo'llari. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2023. – 10-11 b.; G.Turdiyeva. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kredit qobiliyati tahlilining nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlari takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati, 2019. – 6 b.; Mo'minova M. Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. // Iqtisodiyot va ta'lim. Toshkent, 2022. - №3. – B. 59-65.; Sultonmurodov B. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan tijorat banklarining korporativ mijozlariga kredit berish mexanizmini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2023. – 55 b.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit yuklamasi 100 foizgacha bo'lganda 36 oygacha, 125 foizgacha bo'lganda 24 oygacha, 150 foizgacha bo'lganda 12 oygacha muddatli shartlarda 3 milliard so'mgacha maxsus kredit mahsulotini taqdim etish asoslangan;

tijorat banklarida kredit portfeli riskini pasaytirishda kredit miqdori va yuklama darajasiga qarab mulkiy ta'minotning eng kam miqdorini 80 foizdan 125 foizgacha belgilash hamda kredit hajmi oshgani sari nomulkiy ta'minotga ruxsatni bosqichma-bosqich cheklash taklif etilgan;

O'zbekistonda rezident hisoblangan tadbirkotlik sub'ektlariga eksportga yo'naltirilgan sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalari uchun xorijiy kredit liniyasi ochishda qarz oluvchining loyihadagi ishtiroki kamida 30 fozi, import shartnomasidagi ulushi esa kamida 15 foiz bo'lishi taklif etilgan;

eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda korporativ mijozda ijobiy pul oqimi, valyuta tushumlarining mavjudligi kabi asosiy talablarni belgilash asosida eksportoldi moliyalashtirish kreditini joriy etish taklif etilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy korporativ kredit bozoriga xorijiy ishtirokchilarni jalb qilish maqsadida tijorat banklari faoliyatida amalga oshirilishi lozim bo'lgan jihatlar o'rganilgan;

tijorat banklarining korporativ kreditlash amaliyotini samarali tashkil etishda xorijiy kredit liniyalaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

korporativ kreditlash amaliyotida korporativ tuzilmalarning kredit yuklamasidan kelib chiqqan holda kredit ta'minotini shakllantirish masalalari ilmiy asoslangan;

mamlakatimizda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishda muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini yaxshilash va banklarning resurslarini xususiy kapital orqali oshirish masalalari ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Biznesni rivojlantirish banki, Asakabank, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi korporativ axborot portalining statistik ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari hisobotlari, shuningdek, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD), Jahon banki (WBG), Xalqaro valyuta fondi (IMF) kabi xalqaro tashkilotlarning amaliy ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishning nazariy jihatlarini kuchaytirish, tijorat banklari faoliyatining korporativ kreditlash bo'yicha tashkiliy hamda amaliy mexanizmlarini yaxshilash va bu orqali kredit bozorini rivojlantirish, O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekistonda kredit bozorini rivojlantirish va korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlarda hamda kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari bakalavr va magistratura talabalari uchun "Bank ishi", "Pul va banklar" kabi fanlarning mavzularini takomillashtirishda qo'llash imkoniyatining mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kredit yuklamasi 100 foizgacha bo'lganda 36 oygacha, 125 foizgacha bo'lganda 24 oygacha, 150 foizgacha bo'lganda 12 oygacha muddatli shartlarda 3 milliard so'mgacha maxsus kredit mahsulotini taqdim etish taklifi ATB Biznesni rivojlantirish bankida yangi turdagi korporativ bank mahsulotini yaratishda foydalanilgan (ATB Biznesni rivojlantirish bankining 2024 yil 18 sentabrdagi 01-07/8042-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Biznes uchun" kredit mahsulotini amaliyotga joriy etish natijasida kredit yuklamasiga mos ravishda kredit muddatini belgilashga o'tilgan va biznes subyektlari hamda bank uchun kredit riskini boshqarish imkoniyati yuzaga kelgan;

tijorat banklarida kredit portfeli riskini pasaytirishda kredit miqdori va yuklama darajasiga qarab mulkiy ta'minotning eng kam miqdorini 80 foizdan 125 foizgacha belgilash hamda kredit hajmi oshgani sari nomulkiy ta'minotga ruxsatni bosqichma-bosqich cheklashga doir taklif ATB Biznesni rivojlantirish bankidagi korporativ kreditlash amaliyotlarining yangi yo'nalishlarida foydalanilgan (ATB Biznesni rivojlantirish bankining 2024 yil 18 sentabrdagi 01-07/8042-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kredit miqdori 500 million so'mgacha va kredit yuklamasi 50 foizgacha bo'lganda mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori 80 foiz va nomulkiy ta'minotga 45 foizgacha ruxsat berish, kredit miqdori 1 milliard so'mgacha va kredit yuklamasi 75 foizgacha bo'lganda mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori 100 foiz va nomulkiy ta'minotga 25 foizgacha ruxsat berish, hamda kredit miqdori 3 milliard so'mgacha va kredit yuklamasi 150 foizgacha bo'lganda mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori 125 foiz va nomulkiy ta'minotga ruxsat etmaslik asosida bankning "Biznes uchun" kredit mahsulotida kredit ta'minotiga qo'yilgan talablaridagi kredit miqdori va kredit yuklamasi takomillashtirilgan;

O'zbekistonda rezident hisoblangan tadbirkotlik sub'ektlariga eksportga yo'naltirilgan sanoat va qishloq xo'jaligi loyihalari uchun xorijiy kredit liniyasi ochishda qarz oluvchining loyihadagi ishtiroki kamida 30 fozi, import shartnomasidagi ulushi esa kamida 15 foiz bo'lishi taklifi AJ Asakabankda yangi kredit liniyalarini shakllantirishda foydalanilgan (AJ Asakabankning 2024 yil 25 sentabrdagi 1901/914-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Koreya Respublikasi EXIM banki kredit liniyasi jalb qilingan va korporativ biznesga 2024 yil 9 oyi davomida 37 894 yevrolik kreditlar ajratilishiga erishilgan va bunda loyihalarni korporativ mijozlar bilan birgalikda moliyalashtirish ta'minlangan;

eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda korporativ mijozda ijobiy pul oqimi, valyuta tushumlarining mavjudligi kabi asosiy talablarni belgilash asosida

eksportoldi moliyalashtirish kreditini joriy etish taklifi AJ Asakabank tomonidan eksportyor korxonalar faoliyatini moliyalashtirish maqsadida tashkil etilgan korporativ kreditlash amaliyotlarida foydalanilgan (AJ Asakabankning 2024 yil 25 sentabrdagi 1901/914-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2024 yil 3 choragi bo'yicha korporativ mijozlarga 5,3 mlrd.so'mlik eksportoldi moliyalashtirish krediti ajratilgan va 225 mln.AQSh dollariga teng eksport ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, milliy iqtisodiyot rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga monandligi aniqlangan. Shuningdek, kirishda tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar soni va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari kredit operatsiyalarining nazariy asoslari va korproativ kreditlash xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklari kredit operatsiyalari mazmuni va ahamiyatli jihatlari, korporativ mijozlarni kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari, xorijiy banklarning korproativ kreditlash amaliyoti tadqiqi atroflicha o'rganilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga doir tadqiqotlar olib borgan D.Abduraximova bu borada SWOT-tahlili o'tkazgan va tahlil natijalari quyidagicha bo'lgan (1-jadval). Raqamli bank xizmatlari xarajatlarni qisqartirish va daromadlarni oshirish hisobiga operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyati tadqiqotchilar tomonidan ko'p bora ta'kidlanmoqda. Lekin faqat raqamli transformatsiya O'zbekiston kabi milliy iqtisodiyotda davlat ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ijobiy samara berishi murakkabligi D.Abduraximova tomonidan alohida ta'kidlanadi. Tadqiqotchining fikricha raqamli transformatsiya davlat ishtirokidagi tijorat banklari samaradorligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi, xususiy banklarda esa operatsion samaradorlikni keskin oshirali. Shuning uchun davlat ishtirokidagi tijorat banklarida raqamli transformatsiya bilan uzviy ravishda mulkiy transformatsiya ham muhim. Ya'ni tijorat banklaridagi davlat ulushi xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat milliy bank tizimi samaradorligiga, balki milliy iqtisodiyot o'sishiga ham xizmat qiladi.

Raqamli bank xizmatlari SWOT-tahlili⁵

Afzalliklari	Kamchiliklari
1. Qulaylik, geografik va vaqt cheklovlarining yo‘qligi 2. Xavfsizlik, «inson omili» xavfi yo‘qligi 3. Nazorat va shaffoflik 4. Xarajatlarning kamayishi 5. Yuqori samaradorlik	1. Raqamli infratuzilma xarajatlari 2. Foydalanish uchun qurilmalarning zaruriyati 3. 50 yoshdan katta yoshdagilar raqamli texnologiyalardan foydalanish hoxishining pastligi 4. Shiddatli raqobat sharoitida iste’molchilarni jalb qilish va sodiqligini saqlab qolish murakkabligi
Imkoniyatlari	Xavflari
1. Kichik kapital bilan muvaffaqiyat qozonish imkoniyati 2. Qonuniy chegara va to‘siqlarning kamligi 3. Sof raqobat tufayli arzon va sifatli xizmatlar taklifi 4. An’anaviy banklar ham raqamli bank xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyati 5. Fintech loyihalar uchun investitsiyalarni jalb qilish yuqori imkoniyati	1. Kiberhujumlar xavfi 2. Qonunchilikning mukammal emasligi, firibgarlikka keng imkoniyat beradi 3. Bankdan tashqari kapital aylanmasi kengayishi 4. Yuqori texnologiyalarning doimiy rivojlanishi xodimlar malakasini oshirishga xarajatlarni oshirishi 5. Innovatsion xizmatlar doimiy rivojlanishi hisobiga tez ma’nan eskirishi

Har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida biznes, xususan korporativ biznes muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rivoji ko‘p jihatdan arzon moliyaviy resurs jalb qilishga bevosita bog‘liq. Moliya bozorida, xususan uning tarkibiy qismi hisoblangan kredit bozoridagi sog‘lom raqobat korporativ mijozlarni kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biznes loyihalarini moliyalashtirishga doir tadqiqotlar olib borgan J.Razzaqov o‘z ilmiy ishlarida “ijobiy kredit va soliq tarixiga ega biznes subektlarining faoliyatni kengaytirish bo‘yicha biznes loyihalariga Biznesni rivojlantirish banki va boshqa vakolatli banklar tomonidan kreditlar ajratishda garov talabini 50 foizga kamaytirish, shuningdek sindikatli kreditlashda loyihalar ko‘lami, muddati, murakkabligidan kelib chiqqan holda bir bosqichli sindikatlash yoki ikki bosqichli sindikatlash mexanizmini qo‘llash orqali biznes loyihalarini moliyalashtirish taklif etilgan”⁶ligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Amalda sindikatli kreditlar korporativ mijozlar tomonidan yirik loyihalarni amalga oshirishda bir nechta banklar tomonidan birgalikda kreditlash orqali amalga oshiriladi. Bunda bitta bank imkoniyati yetarli bo‘lmagligidan tashqari risk taqsimoti ham amal qilishini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Mamlakatlarda aynan sindikatli kreditlar orqali yirik xususiy loyihalarni kreditlash pirovard natijada global raqobatdoshlikni oshirishga ham xizmat qilishini, istiqbolda xususiy biznes subyektlarini xalqaro moliya bozoridagi faolligini oshirishga xizmat qilishini shu o‘rinda ta’kidlashimiz lozim. Bu bo‘yicha tadqiqotlarda korporativ mijozlarni kreditlashda banklar ishtirokiga ko‘ra kreditlar “yagona bank beradigan kreditlar,


⁵ Abduraximova D. O‘zbekistonda innovatsion bank mahsulotlarini joriy etish orqali bank xizmatlari bozorini rivojlantirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoref. Toshkent, 2023. – 79 b.

⁶ Razzaqov J. Biznes loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. Toshkent, 2024. – 75 b.

sindikatlashgan kreditlar va parallel kreditlar”ga ajratilishiga ham guvoh bo‘lish mumkin.

Korporativ kreditlash amaliyoti deyarli har bir xorijiy bank tomonidan qo‘llaniladigan aktiv operatsiya hisoblanadi. Bunda xorijiy banklar kredit portfelini diversifikatsiyalash, risklarni taqsimlash kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratishadi. Umuman olganda korporativ kreditlash nuqtai nazaridan turli kredit mahsulotlarini taqdim etish bugungi kunda xorijiy banklar faoliyatining o‘zagi hamdir. Shundan kelib chiqib quyidagi bu haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Global raqobatda ustuvorlik nuqtai nazaridan biznes doimiy rivojlanishni o‘z oldiga qo‘ygan sharoitda sindikatlashgan kreditlar jalb qilish masalasi ham moliyaviy resurs bo‘yicha raqobatda ishtirok etayotganiga guvoh bo‘lish mumkin. Sindikatlashgan kreditlar bozorida xorijiy tijorat banklari faolligi ham yildan-yilga tobora oshib bormoqda. Bunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, istiqbolli biznes loyihalarni kreditlash turli tarmoq va sohalarni qamrab olganligini ham shu joyda alohida ta’kidlab o‘tish lozim.




1-rasm. JP Morgan Chase banking korporativ mijozlariga kreditlar⁷

⁷ JPMorgan Chase banking 2023-yil uchun yillik hisoboti ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi. <https://www.jpmorganchase.com/content/dam/jpmc/jpmorgan-chase-and-co/investor-relations/documents/annualreport-2023.pdf>

JP Morgan Chase bankining korporativ mijozlarga ajratgan kreditlari yillar davomida o‘shish va o‘zgarish dinamikasini namoyon etmoqda. 2008 yilda korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar hajmi 1088 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich izchil o‘shib borgan. 2010 yilda bu raqam 1185 milliard dollarga yetgan, bu esa bankning korporativ sektor bilan muvaffaqiyatli ish olib borganligini ko‘rsatadi. 2015 yilga kelib, bank tomonidan korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar hajmi 2044 milliard dollarga yetgan. Bu davrda bankning asosiy e‘tibori iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Iste‘molchilar, kichik va o‘rta biznes hamda davlat tashkilotlari uchun ham ajratilgan kreditlar hajmi o‘sgan. Masalan, 2018 yilda korporativ mijozlar uchun ajratilgan kreditlar hajmi 2307 milliard dollarga yetgan bo‘lib, bu bankning bozordagi yetakchi o‘rnini mustahkamlagan (1-rasm).

Yaponiyaning Resona Banki korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlari hajmi yildan yilga izchil o‘shib borishni namoyon qilmoqda. 2021 yilda bank tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 18,4 trillion ienni tashkil etib, yildan yilga o‘shish sur‘ati 1,26% bo‘lgan. Bu davrda bankning asosiy e‘tibori korporativ mijozlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. 2022 yilda ajratilgan kreditlar hajmi 18,9 trillion ienga yetgan va o‘shish sur‘ati 2,15% bo‘lgan. Bankning bu natijalari uning korporativ sektor bilan ishlashda samarali strategik yondashuvini tasdiqlaydi. Ushbu ko‘rsatkich bankning iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shayotganligini aks ettiradi. 2023 yilda Resona Banki tomonidan ajratilgan korporativ kreditlar 19,6 trillion ienni tashkil etgan. Yildan yilga o‘shish sur‘ati 4,14%ga yetgan bo‘lib, bu bankning korporativ mijozlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishda faol ish olib borganligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar bankning raqamli texnologiyalar va yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali xizmatlarini takomillashtirishga qaratilganligini bildiradi (2-rasm).



2-rasm. Yaponiyaning Resona Bankining korporativ mijozlarga ajratgan kreditlari⁸

⁸ Resona Holdings, Inc. kompaniyasining rasmiy ma‘lumotlariga asosan tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi. <https://www.resona-gr.co.jp/holdings/english/about/glance/index.html>

Korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlarning o'sish sur'atlari bankning professional boshqaruvini va samarali faoliyatini tasdiqlaydi. 2021-2023 yillarda bank kredit portfelining o'sishi barqaror bo'lib, bu uning moliyaviy strategiyasining samarali ekanligini ko'rsatadi. Kelgusi yillarda esa bank korporativ sektorga yanada ko'proq moliyaviy yordam ko'rsatishni maqsad qilgan. Ushbu strategiya uning ichki va tashqi bozorlardagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Resona Banki korporativ mijozlarga kredit ajratishda yetakchi banklardan biri sifatida o'z mavqeini saqlab qolmoqda. Bank tomonidan joriy etilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar korporativ mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Korporativ sektorga qaratilgan bu yordam bankning iqtisodiy rivojlanishdagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Shu tariqa, Resona Banki tomonidan korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar hajmi uning moliyaviy barqarorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yaqqol aks ettiradi. Bankning kelgusi rejaları iqtisodiy o'sishga ko'maklashish va korporativ sektorni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lib, bu uning Yaponiya moliya bozoridagi yetakchiligini mustahkamlaydi (2-rasm).

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda tijorat banklarining korporativ kreditlash amaliyoti tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda biznesni bank kreditlari vositasida moliyalashtirish amaliyoti tahlili, korporativ mijozlarga beriladigan kredit mahsulotlari tahlili, kredit liniyalari orqali korporativ kreditlashning amaldagi holati tahlil qilingan va bob bo'yicha xulosalar berilgan.

Milliy iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozori ishtiroki O'zbekistonda haqiqatda yuqori. Moliya bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fond bozori yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda kreditga talab nisbatan yuqori. Lekin amalda sof bozor prinsiplari asosidagi kreditlar foiz stavkalari keskin yuqoriligi o'z-o'zidan ma'lum darajada talabni pasaytirayotgan omil sifatida ham namoyon bo'layotganligi xususida shu o'rinda to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Oxirgi yillarda jismoniy shaxslar qarzi yuki ham nisbatan o'sish tendensiyasiga egaligi sharoitida biznes subyektlarining kredit munosabatlariga faol kirishayotganligi ham ayon haqiqat. Bunda yirik aksiyadorlik kompaniyalari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xususiy korxonalar, xorijiy korxonalar, qo'shma korxonalar, oilaviy korxonalar, boshqa kichik va o'rta biznes subyektlari qatori yakka tartibdagi tadbirborlar tomonidan ham bank kreditlariga muntazam talab mavjudligi va muntazam oshib borayotganligi O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning ham doimiy yuqori sur'atlarda oshishini ta'minlamoqda. Bank kreditlari bozorida tijorat banklari biznesni moliyalashtirish orqali o'zlarining aktiv operatsiyalarini amalga oshirishadi. Amalga oshirilayotgan kredit operatsiyalari natijasida tijorat banklari daromadliligi ham ta'minlanmoqda. Boshqa tomondan davlat dasturlari doirasida biznesni kreditlash natijasi o'laroq, kredit mablag'laridan samarali foydalanilmaslik natijasida muammoli kreditlarning ham ortishi kuzatilmoqda.

Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan bank kreditlarining tarmoqlar bo'yicha tahlili sanoatga eng ko'p yo'naltirilayotganligini ko'rsatadi (2-jadval). 2023 yil davomida sanoatga ajratilgan bank kreditlari 66,914 trillion so'mni tashkil etgan va bu 2020 yilga nisbatan 1,61 baravar yuqori. 2021-2023 yillarda qishloq xo'jaligiga ajratilgan bank kreditlari keskin pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan tarmoqlar bo'yicha ajratilgan kreditlar, mlrd so'mda⁹

Sana	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport va kommunikatsiya	Jismoniy shaxslar	Boshqalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9
2020 yil	127 207,5	41 603,0	18 772,2	4 939,5	18 262,1	4 366,4	28 466,6	10 797,8
2021 yil	166 673,5	51 335,6	21 133,2	6 745,4	26 849,6	6 309,6	40 520,9	13 779,3
2022 yil	203 126,6	60 198,7	15 963,9	7 828,5	30 303,7	7 217,8	65 288,5	16 325,5
2023 yil	251 401,5	66 913,9	14 602,5	6 826,8	30 511,1	9 594,3	100 234,8	22 718,1
2024 yil 9 oylik	200 088,5	51 283,2	13 950,3	5 117,3	26 809,7	4 515,9	73 141,0	25 271,1

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning maqsadlariga e'tibor qaratsak quyidagilarga guvoh bo'lamiz (3-jadval). Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi yildan-yilga sezilarli darajada oshgan bo'lib, ularning maqsadlar bo'yicha taqsimoti O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillarni aks ettiradi. 2020 yilda jami ajratilgan kreditlar hajmi 127 207,5 milliard so'mni tashkil etgan. Asosiy vositalar sotib olish uchun ajratilgan kreditlar 39 009,8 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiyani ko'rsatadi. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi 43 797,0 milliard so'mga yetgan.

3-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning maqsadlar bo'yicha tahlili, mlrd so'mda¹⁰

Yillar	Jami kreditlar	shundan:				
		Asosiy vositalar sotib olish uchun	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun	Yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun	Aholiga uy-joy qurish va sotib olish uchun	Boshqa maqsadlar
1	2	3	4	5	6	7
2020 yil	127 207,5	39 009,8	43 797,0	10 462,2	9 163,5	24 775,0
2021 yil	166 673,5	43 447,8	63 319,8	12 637,9	9 787,6	37 480,4
2022 yil	203 126,6	44 087,4	75 663,4	12 131,2	14 307,0	56 937,6
2023 yil	251 401,5	47 784,9	80 015,2	5 461,6	16 088,4	102 051,4
2024 yil 9 oy	200 088,5	22 555,7	85 951,9	4 751,6	11 720,4	75 108,8

Bank kreditlari, xususan korporativ mijozlarga beriladigan kreditlar milliy qonunchiligimizga ko'ra qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. O'zbekistonda qisqa va uzoq muddatli kreditlar qoldig'i quyidagicha (4-jadval).

⁹ O'z. Res. Markaziy bankining Statistika byulleteni – 2024-yil sentyabr - <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/1942829/>

¹⁰ O'z. Res. Markaziy bankining Statistika byulleteni – 2024-yil sentyabr - <https://cbu.uz/oz/statistics/buletin/1942829/>

Tijorat banklari muddatlar bo'yicha kreditlari qoldig'i, mlrd so'mda¹¹

Sana	Jami	shu jumladan:					
		qisqa muddatli kreditlar	shundan:		uzoq muddatli kreditlar	shundan:	
			milliy valyutada	chet el valyutasida		milliy valyutada	chet el valyutasida
1	2	3	4	5	6	7	8
01.01.2020 y.	211 580,5	17 952,1	11 661,4	6 290,6	193 628,4	98 971,8	94 656,7
01.01.2021 y.	276 974,8	28 244,6	16 988,2	11 256,4	248 730,2	121 880,3	126 850,0
01.01.2022 y.	326 385,6	33 379,4	19 715,9	13 663,6	293 006,1	144 007,0	148 999,1
01.01.2023 y.	390 048,9	51 130,0	26 392,8	24 737,2	338 918,9	178 537,9	160 381,0
01.01.2024 y.	471 405,5	61 180,0	30 081,6	31 098,4	410 225,6	229 293,4	180 932,1
01.10.2024 y.	515 640,8	66 703,2	30 411,4	36 291,8	448 937,5	259 916,1	189 021,5

Korporativ mijozlar uchun joriy qilingan bank krediti mahsulotlari tijorat banklarining asosiy aktiv operatsiyalari sifatida foizli daromadlarning salmoqli qismini olishga xizmat qiladi. Bunda kredit mahsulotlari bo'yicha jozibador takliflar berish tijorat banklari oldidagi muhim ustuvor maqsadlardan biridir. Mazkur jihat o'z navbatida korporativ mijozlarga o'z loyihalariga mos kredit mahsulotlaridan foydalanish imkonini ham beradi.

Biznesni rivojlantirish bankining yana bir kredit mahsuloti eksport operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, "Eksportni rag'batlantirish" krediti deya nomlanadi hamda AQSh dollarida ajratiladi. Mazkur kredit 10 million AQSh dollarigacha miqdorda 4 foizlik stavkada 2 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi. Uning asosiy shartlari quyidagilardan iborat. "Biznesni rivojlantirish banki" tomonidan taklif etilayotgan "Eksportni rag'batlantirish" kredit mahsuloti tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu mahsulot asosan barqaror korxonalar, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulot ishlab chiqaruvchilar va eksportni rivojlantirishni maqsad qilgan tadbirkorlarga mo'ljallangan. Barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan ("AAA", "AA", "A") korxonalar hamda kamida 10% yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot eksport qilgan korxonalar ushbu kreditdan foydalanish huquqiga ega. Kredit xorijiy valyutada (AQSh dollarida) taqdim etiladi va pul mablag'lari mijoz yoki mahsulot yetkazib beruvchining hisobvaraqlariga o'tkaziladi. Yillik foiz stavkasi umumiy holatda 4%dan oshmaydi, maxsus tarmoqlar (masalan, gazlama va trikotaj mato eksport qiluvchilar) uchun esa 6% gacha belgilangan (5-jadval).

Bank tomonidan ajratilgan kredit mahsuloti tadbirkorlikning barqarorligini ta'minlashga, ichki va tashqi bozorlardagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu mahsulotdan foydalanish orqali, tadbirkorlar yangi texnologiyalar joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. "Eksportni rag'batlantirish" kredit mahsuloti eksport faoliyatini kengaytirishni maqsad qilgan korxonalar uchun muhim vosita hisoblanadi. Kreditning past foiz stavkasi va uzoq muddatli shartlari tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, mazkur mahsulot xalqaro bozorlardagi yangi imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun korxonalariga qo'shimcha qo'llab-quvvatlashni taqdim

¹¹ O'z. Res. Markaziy bankining Statistik byulleteni – 2024-yil sentyabr - <https://cbu.uz/oz/statistics/buletten/1942829/>

etadi. “Biznesni rivojlantirish banki”ning ushbu kredit mahsuloti O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘shadi.

5-jadval

Biznesni rivojlantirish banki “Eksportni rag‘batlantirish” kredit mahsuloti tahlili¹²

№	Shartlar va talablar	Shartlar va talablar alohida xususiyatlari
1.	Kimlar uchun mo‘ljallangan?	Eksport faoliyati bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlar uchun: Barqaror korxonalar: Moliyaviy holati mustahkam bo‘lgan, yuqori barqarorlik reytingiga ega (“AAA”, “AA”, “A”) kompaniyalar. Qo‘shilgan qiymat yuqori bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaruvchilar: Oxirgi 12 oyda eksport qilgan mahsulotlarining kamida 10 foizi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan korxonalar. Eksportni rivojlantirishni maqsad qilgan tadbirkorlar: Eksport hajmini oshirish va xalqaro bozorga chiqishni rejalashtirgan biznes egalari.
2.	Asosiy ma’lumotlar	Valyuta: Xorijiy valyuta (AQSh dollari). Mijoz hisobraqami: Mahsulot yetkazib beruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi) hisobraqamiga pul o‘tkazish; Tadbirkorlik subekti hisobraqamiga o‘tkazib berish yoki naqd pul shaklida berish. Yillik foiz stavkasi: Umumiy: 4% (shu jumladan 2% bank marjasi) dan oshmagan. Maxsus holatlar (gazlama, trikotaj mato eksport qiluvchilariga): 6% (shu jumladan 1,5% bank marjasi).
3.	Eksport hajmiga qarab kredit miqdori	5 mln.AQSh dollarigacha eksport uchun 1 mln.AQSh dollari kredit; 5-10 mln.AQSh dollari: 2 mln.AQSh dollari; 10-15 mln.AQSh dollari: 3 mln.AQSh dollari; 15-20 mln.AQSh dollari: 4 mln.AQSh dollari; 20-50 mln.AQSh dollarigacha: 5 mln.AQSh dollari; 50 mln.AQSh dollar iva undan yuqori: 10 mln.AQSh dollari
4.	Kredit muddati	Birinchi toifali korxonalar: 24 oy; Ikkinchi toifali korxonalar: 18 oy; Boshqa korxonalar: 12 oy; Maxsus tarmoqlar uchun: 2-3 yil (masalan, gazlama, trikotaj mato eksport qiluvchilarga 3 yilgacha)
5.	Ta’minot	Mulk ta’minoti: Ko‘char va ko‘chmas mulklar, pul mablag‘lari va boshqalar. Nomulkiy ta’minot: Yuridik shaxs kafilligi; Kredit qaytarilmaslik xavfi sug‘urta polisi; “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ kafilligi. Talablar: Kredit ta’minotining kamida 100% qismi mulkiy ta’minot bo‘lishi lozim. Qolgan qismi nomulkiy ta’minot ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.
6.	Kredit oluvchiga qo‘yiladigan talablar	Faoliyat muddati: Kredit olish uchun tadbirkorlik subekti kamida 12 oy davomida faoliyat yuritgan bo‘lishi kerak. Hisobvaraqlar: Hisobvaraqlarida mablag‘ aylanishi mavjud bo‘lishi va eksport tushumlari qayd etilgan bo‘lishi kerak. Ustav fondi: Korxonaning ustav fondi ta’sischilar tomonidan to‘liq shakllantirilgan bo‘lishi kerak.

¹² Biznesni rivojlantirish bankining (BRB) rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.
<https://brb.uz/kreditlar/eksportni-ragbatlantirish-kredit>

Asakabank AJning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun asosiy vositalar sotib olishga qaratilgan uzoq muddatli krediti shartlari¹³

№	Shartlar va talablar	Shartlar va talablar alohida xususiyatlari
1.	Kredit masadi	Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida asosiy vositalar sotib olish uchun
2.	Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan
3.	Kredit foizlari so'ndirilishi	Oylik/Choraklik/Yarim yillik (Loyiha xususiyatidan va resurs shartlaridan kelib chiqqan holda)
4.	Kredit foiz stavkasi	Milliy valyutada – yillik 28%; Maqsadli liniyalar hisobidan: Milliy valyutada – jalb qilingan resurs stavkasi + 6%. Xorijiy valyutada – jalb qilingan resurs stavkasi + 3%.
5.	Korxonaning loyihadagi ulushi	Loyiha qiymatining 30% dan kam bo'lmagan miqdorda, shu jumladan shartnoma orqali sotib olinadigan investitsiya obyekti bo'yicha shartnomaning 15% dan kam bo'lmagan miqdordagi qismi mijoz tomonidan moliyalashtirilishi lozim.

Asakabank aksiyadorlik jamiyatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun asosiy vositalar sotib olishga qaratilgan uzoq muddatli kredit taklif qilinmoqda (6-jadval). "Asakabank" AJ tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish maqsadida asosiy vositalar sotib olish uchun taqdim etilayotgan uzoq muddatli kredit mahsuloti tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu kredit mahsuloti tadbirkorlarga ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va infratuzilmalarini rivojlantirish uchun moliyaviy yordam taklif etadi. Kredit maqsadi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish uchun asosiy vositalar sotib olish bo'lib, bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kreditlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan ichki va tashqi resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi. Loyiha qiymatining kamida 30% miqdori tadbirkorning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi lozim. Shuningdek, investitsiya obyekti bo'yicha shartnoma qiymatining kamida 15% miqdori mijoz tomonidan qoplanishi kerak. Bu talab kredit mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda Koreya Respublikasi EXIM banki kredit liniyasi jalb qilingan va korporativ biznesga 2024 yil 9 oyi davomida 37 894 yevrolik kreditlar ajratilishiga erishilgan va bunda loyihalarni korporativ mijozlar bilan birgalikda moliyalashtirish ta'minlangan.

Milliy iqtisodiy taraqqiyot va unda to'lov balansi ijobiyligini ta'minlashda biznes subyektlarining, banklar tilida aytganda korporativ mijozlarning tashqi bozorga eksport salohiyatini oshirib borish har bir mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim. Bunda tijorat banklari tomonidan eksportoldi moliyalashtirish nuqtai nazaridan bank kreditlari ajratish alohida moliyaviy qo'llab-quvvatlash sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jihatdan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan eksportoldi moliyalashtirish kredit mahsulotlarini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Unda kredit olish yuzasidan quyidagilar belgilanishi lozim bo'ladi (7-jadval).

¹³ Asaka bankning rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi. <https://www.asakabank.uz/uz/corporate-customers/credits/uzoq-muddatli-kreditlar?tab=terms-conditions>

Eksportoldi moliyalashtirish kredit mahsulotini joriy etishda belgilanadigan shartlar va zarur hujjatlar¹⁴

Shartlar va qo'yiladigan talablar	Zarur hujjatlar
Loyiha qiymatining kamida 30 foizini qarz oluvchi korporativ mijoz mablag'lari tashkil etishi; Moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning mavjudligi; Muammoli kredit bo'yicha №2 kartotekaning mavjud emasligi va muddati o'tgan kredit qarzdorligi yo'qligi; Kredit berilayotgan davrda mijozning faoliyatdan ijobiy pul oqimining mavjudligi; Kredit to'lovlarini qoplash uchun xorijiy valyutadagi daromadlari mavjudligi	Kredit ajratish uchun ariza; Amaldagi bank qonunchiligiga va bank kredit siyosati talablariga javob beradigan garov ta'minoti hujjatlari; Moliyaviy hisobotlar; Korporativ mijozning ta'sis hujjatlari; Kelajakdagi pul oqimlari ko'rsatilgan holda korporativ mijoz biznes-rejasi.

Loyiha qiymatining kamida 30 foizini qarz oluvchi korporativ mijoz mablag'lari tashkil etishi, moliyaviy faoliyatdan olingan foydaning mavjudligi; muammoli kredit bo'yicha №2 kartotekaning mavjud emasligi va muddati o'tgan kredit qarzdorligi yo'qligi kabi talablar boshqa kredit mahsulotlarida ham mavjudligidan kelib chiqqan holda ta'kidlashimiz lozim. Shundan kelib chiqqan holda tijorat banklarining eksportoldi moliyalashtirish kredit mahsulotida korporativ mijozning kredit berilayotgan davrda ijobiy pul oqimiga egaligi, kredit to'lovlarini qoplash uchun xorijiy valyutada daromadlari mavjudligi muhim shartlar sifatida belgilanishi lozim, deb hisoblaymiz. Bunda ayniqsa korporativ mijozning valyutada daromadi mavjudligi valyutada kreditlar qaytarilishini ta'minlovchi asosiy dastak sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur amaliyot natijasida 2024-yil 3 choragi bo'yicha korporativ mijozlarga 5,3 mlrd. so'mlik eksportoldi moliyalashtirish krediti ajratilgan va 225 mln. AQSh dollariga teng eksport amalga oshirilishi ta'minlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini samarali tashkil etish masalalari”** ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq qilingan. O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari hamda tijorat banklarining korporativ kreditlash amaliyotini samarali tashkil etish yo'llari tadqiq qilingan hamda ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

10-jadval ma'lumotlari asosida ko'rinib turibdiki, 2020–2024 yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi barqaror sur'atlar bilan o'sib borgan. 2021-yil boshida jami kreditlar 276 975 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 533 121 mlrd so'mga yetgan. Bu davr mobaynida davlat ulushi mavjud banklar kreditlarining ulushi yuqori bo'lib qolgan bo'lsa-da, boshqa banklarning kredit hajmi keskin oshgan. 2021-yilda xususiy banklar 32 491 mlrd so'mlik kredit ajratgan bo'lsa, 2025-yil boshida bu raqam 166 391 mlrd so'mga ko'tarilgan. Bu esa kredit bozorida xususiy sektor faolligining keskin oshayotganini ifodalaydi. Shu bilan birga davlat banklarining kredit hajmi ham doimiy ravishda o'sib, 2025-yil boshida 366 731 mlrd so'mni tashkil qilgan (8-jadval).

¹⁴ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Tijorat banklarining kreditlari tahlili, mlrd. so‘m¹⁵

Sana	Kreditlar		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2021 y.	276 975	244 484	32 491
01.01.2022 y.	326 386	280 074	46 312
01.01.2023 y.	390 049	324 681	65 368
01.01.2024 y.	471 406	333 298	138 107
01.01.2025 y.	533 121	366 731	166 391

9-jadvalga ko‘ra 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklarining kredit faoliyatida sezilarli o‘shish kuzatilgan. 2020 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, umumiy kredit hajmi 211 580,5 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib, bu ko‘rsatkich 471 405,5 milliard so‘mga yetdi. Davlat ulushiga ega banklar ajratgan kreditlar 2020 yilda 186 630,3 milliard so‘m bo‘lib, 2024 yilga kelib 333 298,1 milliard so‘mga o‘sgan. Boshqa banklar tomonidan ajratilgan kreditlar 2020 yilda 24 950,2 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 138 107,4 milliard so‘mga yetgan. Bu ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, kredit bozorida xususiy sektorning ulushi sezilarli darajada ortgan. Kreditlash jarayonidagi ushbu o‘zgarishlar iqtisodiyotning turli sohalariga moliyaviy resurslarni yo‘naltirish jarayonini kengaytirgan. 2023 va 2024 yillarda boshqa banklar tomonidan ajratilgan kreditlarning yuqori sur‘atda o‘shishi ularning bozordagi pozitsiyalarini mustahkamlaganidan dalolat beradi. 2020-2024 yillar davrida banklar kredit portfellarini diversifikatsiya qilishga va ko‘proq mijozlarni qamrab olishga harakat qilishgan. Bu davrda kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar ulushi ham oshgan.

Yillar kesimida tijorat banklarining kreditlari tahlili, mlrd. so‘m¹⁶

Sana	Kreditlar		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2021 y.	211 580,5	186 630,3	24 950,2
01.01.2022 y.	276 974,8	244 483,9	32 490,9
01.01.2023 y.	326 385,6	280 073,6	46 311,9
01.01.2024 y.	390 048,9	324 680,8	65 368,2
01.01.2025 y.	471 405,5	333 298,1	138 107,4

10-jadval ma’lumotlari asosida 2020–2024 yillar davomida tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL – non-performing loans) hajmi o‘zgaruvchan bo‘lgani kuzatilmog‘da. 2021 yil boshida umumiy muammoli kreditlar 5 785 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yil boshiga kelib bu ko‘rsatkich 21 185 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu o‘shish bank kreditlari hajmining umumiy kengayishi fonida yuz bergan bo‘lsa-da, muammoli kreditlarning nisbatdagi ulushi barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin. 2022 yilda muammoli kreditlar keskin oshib, 16 974 mlrd so‘mni tashkil etgan, bu esa iqtisodiy

¹⁵ <https://cbu.uz/oz/> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.

¹⁶ <https://cbu.uz/oz/> - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari

inqiroz yoki tashqi moliyaviy sharoitlar yomonlashganligini ko'rsatishi mumkin. 2023 yilda esa muammoli kreditlar hajmi kamayib, 13 992 mlrd so'mni tashkil qilgani banklar tomonidan risklarni boshqarish va qayta moliyalashtirish strategiyalarining samarasini aks ettiradi. Shunga qaramay, 2024–2025 yillarda yana o'sish kuzatilib, xususan, boshqa banklarning muammoli kreditlari 6 841 mlrd so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich 2021 yildagi 617 mlrd so'mga nisbatan o'ta keskin o'sishni aks ettirgan (10-jadval).

10-jadval

2020-2024 yillarda tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) tahlili, mlrd. so'm¹⁷

Sana	Muammoli kreditlar (NPL)		
	Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2021 y.	5 785	5 168	617
01.01.2022 y.	16 974	15 069	1 905
01.01.2023 y.	13 992	12 643	1 349
01.01.2024 y.	16 621	13 267	3 354
01.01.2025 y.	21 185	14 344	6 841

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida biznesga ajratilgan kreditlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri ekonometrik usullar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda 2010–2024 yillar davomida rasmiy statistik manbalar orqali shakllantirilgan quyidagi indikatorlar: YaIM hajmi, aholi umumiy daromadlari hajmi, eksport hamda import hajmi, ishsizlik darajasi va inflyatsiya darajasi, bank kreditlarining o'rtacha foiz stavkasi, muammoli kreditlar miqdori biriga ta'sirini baholash maqsadida tanlab olindi.

Mazkur tadqiqot davomida 2010–2024 yillarga oid iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ekonometrik model qurildi va kreditlarning turli makroiqtisodiy omillarga ta'siri baholandi. Bu orqali iqtisodiy siyosatni shakllantirishda moliyaviy oqimlar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari suriladi.

11-jadval

Ma'lumotlarning tavsifiy statistikasi¹⁸

Variable	Obs	Mean	Std. dev.	Min	Max
Aholiumumi~i	15	340944.7	263169.5	62631.6	896274.4
Yalpiichki~r	15	512976.4	434327	78936.6	1454574
Muammolikr~e	5	3.94	1.021274	2.3	4.9
Milliyvaly~a	5	22.42	.8288546	21.3	23.5
Kichikvaor~b	5	68629.28	16422.17	48389.69	92424.82
Inflyatsiy~z	14	11.49113	2.406416	8.130887	15.2
Eksporhaj~r	15	1.61e+07	4499817	1.21e+07	2.69e+07
Imporhajm~r	15	1.99e+07	9807086	9175811	3.90e+07
Ishsizlars~i	15	960.26	347.0884	622.4	1561

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan har bir omil bo'yicha kuzatuvlar soni, o'rtacha qiymati (mean), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) ni ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanishi (Standart Deviation - standart chetlanish koeffitsienti har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan. Xususan, 2010–2024 yillar davomida

¹⁷ <https://cbu.uz/oz/> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari

¹⁸ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasidagi mavjud iqtisodiy holat va tendensiyalarni ifodalaydi.

Ma'lumotlarning tavsifiy statistikasidan kelib chiqib aytish mumkinki, aholining umumiy daromadlari hajmi o'rtacha 340 944,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish tendensiyasini aks ettiradi, standart og'ish 263 169,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholining real daromadlarida yillik farqlar mavjudligini ko'rsatadi. YaIM esa o'rtacha 512 000 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Eng yuqori YaIM 2024 yilda kuzatilgan bo'lib, bu qiymat 2010 yildagidan qariyb 18 barobar katta. Bu esa iqtisodiyot hajmining izchil kengayib borayotganini bildiradi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar o'rtacha 68 629,3 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bu kreditlash hajmining izchil o'sib borishini va biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash siyosatini tasdiqlaydi.

Muammoli kreditlar ulushi o'rtacha 3,94 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich bank sektoridagi kredit sifati bilan bog'liq risklarni ifodalaydi.

Milliy valyutadagi bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalari o'rtacha 22,42 foiz atrofida bo'lib, nisbatan barqaror tarzda saqlangan. Bu esa monetar siyosatning uzviyligini ko'rsatadi.

Inflyatsiya darajasi o'rtacha 11,49% bo'lib, bu ko'rsatkich O'zbekistonning inflyatsiyaga qarshi siyosatini doimiy izchil yuritganini bildiradi.

Eksport va import hajmlari o'rtasida importning doimiy yuqoriligi kuzatilgan (import o'rtacha: 19,9 mlrd dollar, eksport: 16 mlrd dollar), bu esa tashqi savdo balansining salbiyligini ko'rsatadi.

Ishsizlik darajasi o'rtacha 960,3 ming kishi atrofida bo'lib, dispersiya yuqoriligi mehnat bozorida beqarorlik mavjudligini bildiradi.

Umuman olganda, ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sish tendensiyalarini ko'rsatadi. Biroq, eksport-import tafovuti, muammoli kreditlar va ishsizlik kabi omillar iqtisodiy siyosatda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Yuqoridagi omillar orqali sifatli model tuzishga harakat qilamiz. Buning uchun "Eng kichik kvadratlar usuli"ning farazlarini tekshirishdan boshlaymiz.

Dastlabki faraz - parametrlar chiziqli hamda kuzatuvlar soni belgilar sonidan kamida 6 marta ko'p bo'lishi kerak. Afsuski biz tahlil qilgan davr qisqa hamda omillar va kuzatuvlar soni o'rtasidagi nisbat past bo'lganligi bois, natijaviy omilga kuchli ta'sir qiladigan va sifat jihatidan yuqori bo'lgan regression tahlilni tanlab olamiz.

Navbatdagi faraz - omil belgilar o'rtasida multikolleniarlik bo'lmasligi shart. Buni tekshirishning bir necha xil usullari mavjud, Ulardan biri korrelatsion tahlil hisoblanadi. Shu o'rinda aytish joizki, biz tahlil qilayotgan ko'rsatkichlar turli o'lchovdagi o'zgaruvchilar (so'm, dollar, foiz) bo'lganligi bois, ularni natural logarifmlab olamiz hamda bu bizga bitta miqyosda solishtirish imkonini beradi.

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari natijaviy omil - (Y) va ta'sir etuvchi omillar (X_i) o'rtasida yuqori bog'lanish mavjudligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, YaIM ko'rsatkichi (Y) va aholining umumiy daromadlari hajmi (X_1) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,99 ga teng. Bu esa o'rganilayotgan mazkur omillar o'rtasida juda kuchli bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek natijaviy omil bilan qolgan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida esa quyidagi bog'liqliklarni ko'rish mumkin.


Ko'rsatkichlar korrelatsiya jadvali¹⁹

	lnYalp~r	lnAhol~i	lnMuam~e	lnMill~a	lnKich~b	lnInfl~z	lnEksp~r
lnYalpiich~r	1.0000						
lnAholiumu~i	0.9991	1.0000					
lnMuammoli~e	0.5304	0.5812	1.0000				
lnMilliyva~a	0.7859	0.7526	-0.0715	1.0000			
lnKichikva~b	0.9839	0.9884	0.6228	0.7232	1.0000		
lnInflyats~z	-0.1645	-0.1880	0.0045	-0.3456	-0.3489	1.0000	
lnEksporth~r	0.7627	0.7657	0.4211	0.8379	0.9447	-0.1327	1.0000
lnImportha~r	0.9521	0.9532	0.5315	0.7436	0.9375	-0.1120	0.9014
lnIshsizla~i	0.7600	0.7443	-0.3270	-0.8686	-0.9309	0.1893	0.3644

	lnImpo~r	lnIshs~i
lnImportha~r	1.0000	
lnIshsizla~i	0.6709	1.0000

Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (X_2) o'rtasida boglanish zichligi 0,53 ga teng, bu esa o'rganilayotgan mazkur omillar o'rtasida sezilarli bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Natijaviy omil hamda Kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi (X_3) o'rtasida yuqori bog'lanish mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsientining qiymati 0,78 ga teng. Ajratilgan kreditlar hajmi (X_4) va natijaviy omil orasidagi aloqadorlik 0,98 ga yani zich bog'liqlik ekanligini ko'rsatsa, inflyatsiya darajasi (X_5) hamda natijaviy omil o'rtasidagi bog'liqlik esa -0,16 ga ya'ni teskari bo'sh bog'lanish mavjud ekanligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Ekspart va import hajmining natijaviy omilga bog'liqlik darajasi 0.76 va 0.95 ga teng ekanligini ko'rish mumkin. Ishsizlar sonining asosiy omilga ta'siri sezilarli (0.67) ekanligini aytib o'tish joiz.

Omillar o'rtasida potensial multikolleniarlik muammosi mavjud ekanligini inobatga olib faqat 2 ta omil tanlab olindi.



3-rasm. Natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model²⁰

¹⁹ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

²⁰ Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

Natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzamiz. Ushbu ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \beta_5 X_5 + \varepsilon$$

bu yerda:

y – natijaviy omil, X_i – ta'sir etuvchi omillar, ε – tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi noma'lum $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4, \beta_5$, parametrlarning qiymatlarini aniqlashda “Eng kichik kvadratlar usuli” dan foydalandik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, YaIM ko'rsatkichi (Y) bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda quyidagicha ifodalaymiz:

$$\hat{Y} = 0.601X_1 + 0.665X_2 - 4.083$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, Boshqa o'zgaruvchilar o'zgarmagan sharoitda, biznesga ajratilgan kreditlar hajmi (X_1) o'rtacha bir foizga ortsa, YaIM ko'rsatkichi (Y) o'rtacha 0,601 foizga ortishiga sabab bo'lar ekan degan xulosaga kelishimiz mumkin. P-qiymati 0.009 ga teng va bu qiymat $\alpha = 0,01$ ishonchlilik darajasida statistik ahamiyatli. Shuningdek, eksport hajmining bir foizga oshishi natijaviy omilning 0,665 foizga ko'payishiga sabab bo'lishini ko'rsatdi. P-qiymati 0.007 1% darajada statistik ahamiyatli.

13-jadval

Ko'rsatkichlar regression tahlili

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	5
Model	.376333466	2	.188166733	F(2, 2)	=	2189.99
Residual	.000171843	2	.000085921	Prob > F	=	0.0005
				R-squared	=	0.9995
				Adj R-squared	=	0.9991
Total	.376505309	4	.094126327	Root MSE	=	.00927

InYalpiichkimahsulothajmimlr	Coefficient	Std. err.	t	P> t	[95% conf. interval]	
InKichikvaortatadbirkorliksub	.6019112	.0586669	10.26	0.009	.3494881	.8543343
InEksportahajmimingdollar	.6659679	.056721	11.74	0.007	.4219172	.9100187
_cons	-4.083725	.3999643	-10.21	0.009	-5.804633	-2.362817

Tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsientini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsienti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsienti 0,99 ga teng. Bu esa YaIM ko'rsatkichi (Y) 99,9 foizi hisoblangan ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omildan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 0,1 foizi (100,0-99,9) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

F-statistic = 2189.99, Prob > F = 0.0005 — bu model umumiy holda statistik ahamiyatli ekanini bildiradi. Root MSE = 0.00927 — modelning xatolik darajasi juda past.

14-jadval

Kichik va o'rta biznes korxonalari uchun kredit mahsulotini joriy etish va unda kredit muddatini kredit yuklamasidan kelib chiqib belgilash²¹

No	Kredit yuklamasi	Kredit muddati	Kredit miqdori
1.	≤100 foiz	36 oygacha	3 milliard so'mgacha
2.	≤125 foiz	24 oygacha	3 milliard so'mgacha
3.	≤150 foiz	12 oygacha	3 milliard so'mgacha

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarida korporativ mijozlarning kredit yuklamasidan kelib chiqqan holda kredit muddatini belgilash lozim va bu amaliyotning joriy etilishi kredit riskining pasayishiga xizmat qiladi. Jumladan kichik va o'rta biznes korxonalari uchun kredit yuklamasidan kelib chiqib, kredit muddatini belgilash yuzasidan quyidagi taklifni ilgari suramiz (14-jadval).

Taklif asosida Biznesni rivojlantirish bankida kichik va o'rta biznes korxonalari uchun "Biznes uchun" kredit mahsulotini joriy etildi. Unda asosiy shartlar sifatida kredit yuklamasi ≤100 foiz bo'lganda 36 oygacha, ≤125 foiz bo'lganda 24 oygacha, ≤150 foiz bo'lganda 12 oygacha muddatli shart bilan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun 3 milliard so'mgacha bo'lgan biznes uchun maxsus kredit mahsulotini taqdim etish tartibi belgilandi. Mazkur taklif asosida "Biznes uchun" kredit mahsulotini amaliyotga joriy etish natijasida kredit yuklamasiga mos ravishda kredit muddatini belgilashga o'tildi va biznes subyektlari hamda bank uchun kredit riskini boshqarish imkoniyati yuzaga keldi.

Korporativ mijozlar uchun bank kreditlarida ta'minot masalasi ham doimiy e'tibor talab qiladi. Bunda garov mulkiy va nomulkiy ta'minot bo'yicha talablarni kredit miqdori va korporativ mijoz kredit yuklamasi asosida belgilash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Kredit miqdori va kredit yuklamasi asosida kredit ta'minotini quyidagicha belgilash taklif etiladi (15-jadval).

15-jadval

Korporativ mijozlar uchun kredit miqdori va kredit yuklamasi asosida kredit ta'minotiga talablar²²

No	Kredit miqdori	Kredit yuklamasi	Mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori	Nomulkiy ta'minot chegarasi
1.	≤500 million so'm	≤50 foiz	80 foiz	45 foizgacha
2.	≤1 milliard so'm	≤75 foiz	100 foiz	25 foizgacha
3.	≤3 milliard so'm	≤150 foiz	125 foiz	Nomulkiy ta'minotga ruxsat etmaslik

Ma'lumki, bank kreditlari bo'yicha garov ta'minoti 125 foiz etib belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda yuqoridagi jadvalda ham kredit ta'minoti 125 foiz doirasida va mulkiy hamda nomulkiy ta'minotga ajratilgan holda taklif etilgan. Ya'ni kredit miqdori ≤500 million so'm va kredit yuklamasi ≤50 foiz bo'lganda mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori 80 foiz va nomulkiy ta'minotga 45 foizgacha ruxsat berish lozim. Agarda kredit miqdori ≤1 milliard so'm va kredit yuklamasi ≤75 foiz bo'lganda korporativ mijozdan mulkiy kredit ta'minotining eng

²¹ Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan.

²² Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan.

kam miqdori 100 foiz va nomulkiy ta'minotga 25 foizgacha ruxsat berish maqsadga muvofiqdir. Kredit miqdori ≤ 3 milliard so'm va kredit yuklamasi ≤ 150 foiz bo'lganda kredit riski yuqoriligi asosida mulkiy kredit ta'minotining eng kam miqdori 125 foiz va nomulkiy ta'minotga ruxsat etilmasligi belgilanishi yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur taklif asosida Biznesni rivojlantirish bankining "Biznes uchun" kredit mahsulotida kredit ta'minotiga qo'yilgan talablari kredit miqdori va kredit yuklamasi asosida belgilanishi ta'minlangan.

XULOSA

O'zbekistonda korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirilgan:

1. kredit ajratish jarayonini soddalashtirishga e'tibor qaratish lozim. Bunda korporativ mijozlar uchun talab etiladigan hujjatlar ro'yxatini kamaytirish, kredit ajratishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda avtomatlashtirilgan va raqamli platformalar orqali kredit arizalarini tezkor ko'rib chiqish lozim;

2. moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash lozim. Korporativ mijozlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlashlarini rag'batlantirish, shaffoflikni ta'minlash uchun mijozlarning moliyaviy holatini baholash tizimini takomillashtirish orqali bunga erishish mumkin;

3. kredit foiz stavkalarini pasaytirishda korxonalar va kichik biznes uchun imtiyozli kreditlarni joriy etish, kredit resurslari uchun xarajatlarni kamaytirish maqsadida markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish zarur;

4. kredit bilan bog'liq moliyaviy risklarni samarali boshqarish zarur. Banklarda risklarni baholash bo'yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish va kredit tavakkalchiliklarini boshqarish uchun mijozlarning ishlab chiqarish quvvati va bozordagi holatini tahlil qilish lozim;

5. kredit liniyalaridan foydalanishda korxonalarining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar kredit berishdan avval moliyaviy tahlil o'tkazishi va korxonaning to'lov qobiliyatini baholashi kerak. Kreditlash jarayonini avtomatlashtirish ham uning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali kredit berish jarayonini tez va samarali tashkil etish mumkin;

6. xorijiy kredit liniyalari asosan yirik loyihalar uchun ajratiladi. Bu esa mamlakatda infratuzilmani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va ulardan to'g'ri foydalanish xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini yanada oshiradi. Korxonalar ajratilgan mablag'larni rejali va maqsadli sarflashi lozim. Banklar xorijiy kredit liniyalari orqali ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha monitoring o'rnatishi va uning samaradorligini baholashi zarur. Bu kreditlash amaliyotining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi;

7. kredit muassasalarida axborot shaffofligini oshirish hamda kredit bozorida raqobatni rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Mijozlar uchun moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligi va aniqligi ularning ishonchini oshiradi.

Shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligini yaxshilash lozim;

8. kredit yuklamasidan kelib chiqqan holda moslashtirilgan foiz stavkalarda va belgilangan miqdorda biznes uchun maxsus kredit mahsulotlarini taqdim etish lozim. Bu orqali kredit yuklamasiga mos ravishda kredit muddatini belgilashga o'tish va biznes subyektlari hamda bank uchun kredit riskini boshqarish imkoniyati yuzaga keladi;

9. korporativ kreditlash amaliyotini takomillashtirishda kredit yuklamasidan kelib chiqqan holda kredit miqdori va unga nisbatan mulkiy va nomulkiy ta'minot bo'yicha chegarani turlicha belgilash amaliyotini joriy qilish lozim;

10. O'zbekistonda rezident hisoblangan xususiy kichik korxonalar, qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari uchun sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohasida yangi ishlab chiqarishni yaratish, mavjudini kengaytirish va rekonstruksiya qilishga qaratilgan eksportga yo'naltirilgan loyihalarga xorijiy kredit liniyasi ochishda qarz oluvchining loyihadagi ishtirokini ta'mindash orqali korporativ mijozlar bilan birgalikda moliyalashtirish zarur;

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.22/29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**БАНКОВСКО-ФИНАНСОВАЯ АКАДЕМИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

АСАТУЛЛАЕВ АЛИШЕР АСАТУЛЛА УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАКТИКИ КОРПОРАТИВНОГО
КРЕДИТОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (Doctor of Philosophy)
по экономическим наукам

город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам зарегистрирована под номером В2024.2.PhD/Iqt4059 в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и Информационно - образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Элмирзаев Самириддин Эшкuvatович
доктор экономических наук, профессор


Официальные оппоненты: Атапиязов Жасур Хамидович
доктор экономических наук, профессор
Рахматов Хасан Уткирович
доктор экономических наук

Ведущая организация: Высшая школа бизнеса и предпринимательства при Кабинете Министров Республики Узбекистан


Защита диссертации состоится 14^{ое} в час. «02» 08 2025 г. на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.1.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. (Адрес: 100114, г. Ташкент, улица Малая кольцевая, дом 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (внесен в список под № 28 Адрес: 100114, г. Ташкент, улица Малая кольцевая, дом 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz)

Автореферат диссертации разослан «16» 07 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 36 от «14» 06 2025 года)



Н.Х.Жумаев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор



А.Т.Абсаламов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент



Д.А.Рахмонов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие практики корпоративного кредитования является одним из важных направлений устойчивого развития глобальной экономики. “В последние годы объём рынка кредитов стремительно вырос. Данный рынок вырос с 14152,54 миллиарда долларов в 2023 году до 16442,29 миллиарда долларов в 2024 году, зафиксировав годовой темп роста на уровне 16,2 процента”²³. Удовлетворение финансовых потребностей предприятий, расширение производства и повышение конкурентоспособности являются основными целями этого процесса. На сегодняшний день для наращивания производственных мощностей и внедрения инновационных технологий, предприятиям необходимы гибкие и низкопроцентные кредитные ресурсы. В данном процессе важно обеспечить прозрачность и оперативность процесса кредитования. Необходимо развивать систему онлайн-кредитования с использованием современных информационных технологий. Эффективная практика корпоративного кредитования закладывает основу для создания новых рабочих мест, поддержки местного рынка и наращивания экспортного потенциала. В этой связи, одной из актуальных задач остается совершенствование практики корпоративного кредитования.

В научных исследованиях, направленных на совершенствование практики корпоративного кредитования в мире, уделяется внимание таким вопросам, как риск-менеджмент в условиях резких изменений на международном кредитном рынке, оценка эффективности применения финансовых технологий в банковской сфере в условиях цифровизации экономики, внедрение новых банковских продуктов в целях диверсификации деятельности участников корпоративного кредитного рынка. Однако в данных исследованиях недостаточно изучены специфические аспекты кредитных рынков в развивающихся странах, таких как Узбекистан, проблемы, связанные с эффективной практикой корпоративного кредитования на этих рынках и формированием механизмов по развитию конкуренции на местном кредитном рынке. В эффективной организации корпоративного кредитования остаются нерешёнными такие вопросы, как активное вовлечение отечественных и зарубежных участников кредитного рынка, обеспечение конкуренции при удовлетворении потребности корпоративных структур в финансовых ресурсах, использование эффективных и прозрачных механизмов расширения ресурсной базы коммерческих банков. Всё это, в свою очередь, подчёркивает актуальность проведённого исследования по совершенствованию практики корпоративного кредитования.

В Узбекистане предпринимаются ряд мер по совершенствованию практики корпоративного кредитования. В частности, нашим Президентом Ш.Мирзиёевым было отмечено, что “По итогам 2024 года общий объём

²³ (The Business Research Company) Данные отчета компании Бизнес Исследования <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/commercial-lending-global-market-report>

выданных кредитов достиг 275 триллионов сумов. В 2025 году этот показатель превысит 300 триллионов сумов. Особое внимание будет уделено кредитованию малого бизнеса: его доля увеличится с 28 до 40 процентов, достигнув 120 триллионов сумов”²⁴. Тем не менее, в данной сфере сохраняются ряд нерешённых проблем. В частности, следует отметить такие факторы, как недостаточный уровень конкуренции на внутреннем кредитном рынке, низкая доля иностранных участников на кредитном рынке, сохранение высоких средних процентных ставок по корпоративным кредитам, охват не всех представителей отраслей при финансировании корпоративных структур коммерческими банками, высокий уровень государственного вмешательства в банковскую сферу, наличие строгих правил и требований при получении корпоративных кредитных продуктов, а также высокая доля проблемных кредитов в практике корпоративного кредитования. В связи с этим, совершенствование корпоративного кредитования в Узбекистане, в частности, всестороннее изучение специфических особенностей и проблем в разработке организационных и практических механизмов деятельности участников кредитного рынка, разработка методологии выявления и оценки рисков в корпоративном кредитовании, использование передового зарубежного опыта в данной сфере, а также выработка предложений по устранению существующих проблем имеют важное значение и определяет актуальность выбранной темы исследования.

Данное диссертационное исследование послужит реализации задач, обозначенных в Законах Республики Узбекистан № 582 “О Центральном банке Республики Узбекистан” от 11 ноября 2019 года, № 580 “О банках и банковской деятельности” от 5 ноября 2019 года, № 765 “О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности” от 20 апреля 2022 года, в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 “О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы” от 28 января 2022 года, № УП- 5992 “О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020 — 2025 годы” от 13 мая 2020 года, в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-3620 “О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг” от 23 марта 2018 года, № ПП- 4503 “О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров в банковско-финансовой сфере” от 31 октября 2019 года, и в других нормативно-правовых документах, направленных на совершенствование практики кредитования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики I. “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

²⁴ Речь Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева под названием “Успех предпринимателя — это успех всего нашего народа”, 20.12.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>

